

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA  
KOMMUNIKASIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XOPAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
NUKUS FILIALI**

*“Himoyaga ruxsat etildi”  
“Dasturiy injiniringi”  
kafedrasi mudiri \_\_\_\_\_  
prof. N.Uteuliev  
« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2019y*

**Avtomatlashtirilgan ta’lim axborot tizimi uchun kafedra fanlarining o‘quv-  
uslubiy majmualar modulini ishlab chiqish**

mavzusida

## **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Bitiruvchi	_____	J.Yusupov
	Imzo	
Rahbar	_____	E.S.Babadjanov
	Imzo	
Taqrizchi	_____	xxx
	Imzo	

**NUKUS – 2019**

## Mundarija

KIRISH.....	3
§1. MUTAXASSISLIK O‘QUV REJASINI TUZISH MASALASI .....	5
§2. MYSQL MBBTDA KAFEDRA FANLARINING O‘QUV-USLUBIY MAJMUALAR BAZASINI SHAKLLANTIRISH .....	11
§3. KAFEDRA FAOLIYATINI BOSHQARUV MODEL VA ALGORITMLARI .....	20
3.1. Kontseptual model .....	20
3.2. Modelni tashkil etuvchi algoritmlar tasnifi .....	24
§4. TIZIMDA ISHCHI O‘QUV REJALAR BILAN ISHLASH.....	31
4.1 Tizim bilan umumiy holda tanishish .....	31
4.2.Tizimda o‘quv bo‘limi mutaxassislik ishchi o‘quv rejasini kiritishi va kafedralararo taqsimlashi.....	36
4.3. Avtomatlashtirilgan tizimda kafedra fanlarini o‘quv-uslubiy majmualari bilan ishlash .....	41
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	46
ILOVA.....	48

## KIRISH

Xozirgi kunda kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan, bizning kundalik turmishimizdagi ko'plagan muammolarni kompyuterlarsiz yechishni tasavur qila olmaymiz. Qaysi bir soxani olmaylik, unda xujjat bilan yumush ishlanadi. Xujjat va hisob-kitob bo'lgan joyda ma'lumotlar yig'ilib boriladi. Bu yig'ilgan ma'lumotlarni yillar o'tgandan keyin qayta ishlash, statistikaliq ma'lumotlarni chiqarish, xattoki ularni saqlash kabi muammolar paydo bo'lib boradi. Shuning uchun zamonaviy rivojlangan kompyuter va dasturiy ta'minotlar yordamida ularni avtomatlashtirish maqsadga muvofik bo'ladi.

Bu bitiruv malakaviy ishida «Avtomatlashtirilgan ta'lim axborot tizimi uchun kafedra fanlarining o'quv-uslubiy majmualar modulini ishlab chiqish» mavzusida bo'lib, unda kafedra yuklamasidagi Ishchi Ukuv Rejasidagi (IUR) fanlarni o'qituvchilarga taksimlash ishlarini avtomatlashtirish va uning dasturiy ta'minotini yaratishga qaralgan

Bitiruv malakaviy ishi umuman olganda kirish, to'rt paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ruyxati va qo'shimcha ilovalardan turadi. Ularning qisqacha ma'nosiga to'xtalib o'tamiz.

Birinchi paragrafda mutaxassislik o'quv rejasini tuzish masalasiga qaratilgan bo'lib, unda bitiruv malakaviy ishda ishlatiladigan asosiy atamalar, tushunchalar, o'quv yuklamalariga bo'lgan talablar yoritiladi.

Ikkinchi paragrafda ma'lumotlar bazasi hakida umumiy tushunchalar, ma'lumotlar modelini tuzish yo'llari ko'rib, IUR bazasini va uning jadvallarini yaratish kodlari, ularning o'za-aro aloqalari haqida aytilgan. IO'R bazasi MySQLda yaratilgan bo'lib, sababi dastur veb texnologiyasidan foydalanishi nazarda tutiladi.

O'quv fanlarini kafedralararo hamda kafedrada o'qituvchilararo taqsimlash masalasini yechishda qo'llaniladigan dasturiy ta'minotda ishchi o'quv rejalarni ishlash model va ularning algoritmlari uchinchi paragrafda qaraladi. Bu paragraf avtomatlashtirilgan kafedra ishlarida fanlarni taqsimlashning kontseptual modeli hamda ushbu modelni tashkil etuvchi algoritmlar tasnifi batafsil keltiriladi

To‘rtinchi paragraf bitiruv malakaviy ishning natijaviy qismi bo‘lib, unda IURdagi fanlarni taqsimlash, ya’ni umumiy holda foydalanuvchi tizimdagi IUR bilan ishlovchi modullarda ishlash yo‘llari qaraladi.

Ish TATU Nukus filiali ta’lim jarayonida kafedra fanlarining o‘quv-uslubiy majmualar modulini yaratishga qaratilgan bo‘lib unda asosan IURning bazasini yaratishning infologik modellari, optimallashtirish yo‘llari qaralgan.

Dastur veb sayt ko‘rinishida yaratilgan. Bu sayt OUYu saytlaridan o‘zining dizayni va bazaviy tuzilishidan katta farq qiladi.

Dastur veb ko‘rinishida bo‘lgandan keyin, uning kodlari PHP, HTML, JavaScript, XML tillarida yozilib, bazasi MySQL baza bilan ishlovchi dasturda yaratilgan. PHP da tuzilishi dasturning optimal yechim topishiga va murakkab dasturlash sistemalarini bajarishga imkoniyat beradi. Dastur Apache Serveri bilan ishlab turibdi. Xozirgi kunda bu kafedra fanlarining o‘quv-uslubiy majmualar moduli Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus Fililali tomonidan ishlab chiqilgan “INTER-VUZ” tizimiga joylashtirilgan.

# §1. MUTAXASSISLIK O‘QUV REJASINI TUZISH MASALASI

## *Asosiy terminlar*

Yo‘nalish va mutahassislik bo‘yicha OTM ning **asosiy ta‘lim dasturi** davlat ta‘lim standartiga mos ravishda maqsadni, ta‘lim va tarbiya jarayonini rivojlantirishning mazmunini va metodlarini aniqlovchi normativ xujjatlar komplektini o‘z ichiga oladi.

Oliy professional ta‘limning asosiy ta‘lim dasturining asosiy xujjatlari quyidagilardan iborat:

- o‘quv rejasi;
- ATD ning to‘liq mazmunini ifodalovchi o‘quv fanlari va amaliyotlarning dasturi;
- mutahassisliklar ro‘yxati;
- yakuniy davlat attestatsiyasini mazmuni va uni o‘tkazish tartibi.

Oliy profestsional talimni (OPT) o‘zlashtirish uchun bitiruvchilarga berilgan normativ muddat ta‘limning kunduzgi shakli uchun DTS da belgilab berilgan bo‘lib, bu vaqt o‘z ichiga nazariy bilim olishga, amaliyotga, sessiyaga, bitiruv malakaviy ishini tayyorlashga, ta‘tillarga ajratilgan vaqtlarni oladi.

**Mutahassislik bo‘yicha O‘quv dasturi** – mutahassislik bo‘yicha o‘quv jarayoning strukturasi, o‘quv fanlarining sonini va xajmini, ularni o‘qish ketma–ketligini, amaliyotning nomini va davom etish muddatini, qo‘llaniladigan mashg‘ulotlarning turlarini (ma‘ruza, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar va b.sh.), attestatsiyalarni, nazorat shakllarini va h.k. aniqlab beruvchi asosiy xujjat bo‘lib hisoblanadi. O‘quv dasturi DTS va universitet tomonidan aniqlangan forma bo‘yicha namunaviy o‘quv rejasi asosida o‘quv–ma‘muriy apparat tomonidan ishlab chiqiladi va rektor tomonidan tasdiqlanadi.

**Namunaviy o‘quv rejasi** – o‘quv kursi, fanlar va o‘quv yili bo‘yicha ta‘lim dasturining mazmunini tuzishni o‘zida aks ettiruvchi xujjatdir.

Namunaviy o‘quv dasturi mutaxassislik (yo‘nalish) bo‘yicha mos o‘quv metodik kengash tomonidan tuziladi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

## ***O'quv rejani tuzish bo'yicha metodik ko'rsatmalar***

O'quv dasturi quyidagilarni nazarda tutishi kerak [1]:

- fanlarni o'rganish ketma-ketligi va bu ketma-ketlikning fanlarning izchilligiga asoslanganligi;
- talabanning tekis ta'minlanganligi nuqtai nazardan fanlarning semestrlar bo'yicha taqsimlanishi;
- universitetning kadrlar va moddiy-texnik potentsialidan samarali foylanish.

O'quv rejasini tuzishda aloxida fanlarning va fanlar tsiklining soatlar xajmi DTS da ko'rsatilgan auditorilik mashg'ulotlari va talabalarning mustaqil ishlariga ajratilgan soatlar hajmidan farqi 5% dan ko'p bo'lmasligi kerak.

O'quv rejasining ta'sir qilish muddati OT mutaxassisligiga yoki yo'nalishiga mo'ljallangan muddatga mos kelishi kerak. Oliy ta'limning DTS da o'qish muddati bakalavrlar uchun – 4 yil, magistrilar uchun – bakalavryatni hisobga olganda 6 yil deb belgilangan.

Mutahassisning o'quv rejasi mustaqil xujjat sifatida rasmiylashtiriladi.

Mutaxassis va bakalavr tayyorlashning ATD o'quv rejasi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Sarlavha.
2. O'quv jarayonining grafigi.
3. Xaftalardagi o'quv muddatining balansi.
4. O'quv jarayoning rejasi.
5. Fakultativ fanlar.
6. O'quv amaliyotlari.
7. Ishlab chiqarishga oid amaliyot.
8. Bitiruv malakaviy ishi.
9. Davlat imtixonlari.
10. Yakuniy qism.

O'quv rejasining sarlavhasida fakultet nomi, mutaxassislik kodi va nomi, bitiruvchi ixtisoslik, ta'lim shakli va muddati ko'rsatiladi.

O‘quv jarayonining grafigida har bir kurs va semestr uchun nazariy ta’limning, amaliyotning, sessiyalarning, ta’tillarning va yakuniy davlat attestatsiyalarining kalendar kunlari (xaftalar va oylar bo‘yicha) mos simvollar yordamida ifodalanishi kerak.

O‘quv xaftalarining rejalashtirilgan xajmi qoida bo‘yicha toq semestrlarda 19, juft semestrlarda esa – 17 xaftadan iborat. O‘quv jarayonining grafigini tuzishda bir yilda 52 xafta borligidan, ta’til muddatlarining umumiy soni 7-10 xaftani, shu jumladan qishgi mavsumda 2 xaftadan tashkil topganligidan xulosa chiqarish kerak.

O‘quv yili – 1 sentyabryadan boshlanadi.

O‘quv jarayonining rejasi o‘quv kursi va semestrlari bo‘yicha taqsimlangan barcha o‘qitiluvchi fanlarni, xaftadagi soatlar miqdorini, shuningdek nazorat turlarini o‘zida aks ettiradi.

Nazariy mashg‘ulotlarning o‘quv fanlari bo‘yicha taqsimlangan fakultativ mashg‘ulotlarni xisobga olgandagi umumiy soatlari miqdori, nazariy talim xaftalari sonining talabanning bir haftadagi o‘quv yuklamasining maksimal soniga ko‘paytmasiga teng bo‘lishi kerak (hozirgi kunda u 54 ga teng).

Oliy ta’limning birinchi bosqichida ta’lim dasturlari umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi bilan uzluksizlik va uzviylik ta’minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabanning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o‘zlashtirishini nazarda tutishi zarur:

- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy;
- matematik va tabiiy-ilmiy;
- umumkasbiy;
- ixtisosli;
- qo‘shimcha.

Kasb faoliyati ko‘nikmalarini egallash uchun malaka amaliyotlari o‘tilishi nazarda tutilishi shart.

Ta’lim dasturlari majburiy o‘quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o‘z ichiga olishi shart.

Bakalavriat ta'lim dasturini o'zlashtirishda talabalarning o'quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo'yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Ta'lim dasturlari bakalavriat yo'nalishlari davlat ta'lim standartlariga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart.

Magistratura ta'lim dasturlari bakalavriat ta'lim dasturlari bilan uzluksizlik va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabalar tomonidan quyidagi majburiy bloklar o'zlashtirilishini nazarda tutishi zarur:

- umummetodologik fanlar;
- mutaxassislik fanlari;
- ilmiy faoliyat.

Ta'lim dasturlari majburiy o'quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o'z ichiga olishi lozim.

Talabalarning ta'lim dasturlarini o'zlashtirishida o'quv fanlarining bir qancha masalalari va muammolari bo'yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi zarur.

## **O'quv yuklamasining hajmi**

### **Bakalavriat:**

Barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 soat qilib belgilanadi. Kunduzi o'qish shakli uchun auditoriya mashjulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 36 soat qilib belgilanishi lozim.

O'qishning normativ muddati to'rt yil bo'lgani holda o'quv jarayoni 204 hafta davom etishi zarur.

O'quv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

nazariy ta'lim	65-70 foiz;
attestatsiya	9-10 foiz;
ta'til	13-16 foiz;
malaka amaliyoti	6-8 foiz;
bitiruv ishi	2-3 foiz.

Nazariy ta'lim hajmi bilim sohalariga qarab fanlar bloklari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar - 23-25 foiz;

matematik va tabiiy-ilmiy fanlar - 8-25 foiz;

umumkasbiy fanlar - 33-50 foiz;

ixtisoslik fanlari - 9-10 foiz;

qo'shimcha fanlar - 5-7 foiz.

O'quv yilida ta'til davrining umumiy hajmi 7-10 hafta qilib belgilanadi.

Bakalavriat yo'nalishi o'quv rejasining namunasi 1-jadvalda keltirilgan.

### **Magistratura:**

Barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 soat qilib belgilanadi. Kunduzi o'qish shakli uchun auditoriya mashjulotlari va ilmiy faoliyatning eng yuqori hajmi haftasiga 36 soat qilib belgilanishi lozim.

O'qishning normativ muddati ikki yil bo'lgani holda o'quv jarayoni 100 hafta davom etishi zarur.

O'quv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

nazariy ta'lim - 30-40 foiz;

attestatsiya - 4-7 foiz;

ta'til - 13-16 foiz;

ilmiy faoliyat - 40-50 foiz.

Ilmiy faoliyat quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

- ilmiy-tadqiqot ishlari - 53-57 foiz;

- ilmiy-pedagogik ishlar - 28-22 foiz;

- magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash - 19-21 foiz.

Nazariy ta'lim hajmi magistratura mutaxassisligiga qarab fanlar bloklari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

- umummetodologik fanlar - 30-45 foiz;

- mutaxassislik fanlari - 55-70 foiz.

Magistratura o'quv rejasining namunasi 2-jadvalda keltirilgan.



## §2. MYSQL MBBTDA KAFEDRA FANLARINING O‘QUV- USLUBIY MAJMUALAR BAZASINI SHAKLLANTIRISH

Quyida qanday qilib klient dasturi **mysql** ga ulanishni ko‘ramiz. Bu dastur yordamida **MySQL**serverga ulanish, **SQL**-so‘rovlarni bajarish va shu so‘rovlar natijalarini ko‘rib chiqish mumkin. Bu qsimni o‘rganish uchun kompyuteringizda utilitiga **mysql** o‘rnatilgag va **MySQL** serveri bilan bog‘langan bo‘lishi kerak. **MySQL** serveriga **mysql** dasturi yordamida bog‘lanish uchun foydalanuvchi nomini va odatda parol kiritish lozim. Agar server va klient har xil mashinalarda joylashgan bo‘lsa, **MySQL** serveri ishga tushirilgan xost nomini ko‘rsatish lozim:

```
shell> mysql -h host -u user -p
```

Shundan so‘ng ekranda quyidagi so‘rov paydo bo‘ladi Enter password:, va sizga o‘z parolingizni kiritishingiz kerak bo‘ladi. Agar ulanish to‘g‘ri amalgaoshgan bo‘lsa, ekranda quyidagi ma‘lumot va komanda satri belgisi paydo bo‘ladi

```
mysql>:
```

```
Welcome to the MySQL monitor. Commands end with ; or \g.
```

```
Your MySQL connection id is 459 to server version:
```

```
Type 'help' for help.
```

```
mysql>
```

Quyidagi **mysql>** belgining paydo bo‘lishi **mysql** dasturi ishga tayyorligini bildiradi. Serverdan ixtiyoriy paytda **QUIT** komandasini terib uzilish mumkin:

```
mysql> QUIT
```

Serverdan versiyasi va vaqtni so‘raydigan sodda komandani quyidagicha:

```
mysql> SELECT VERSION(), CURRENT_DATE;
```

**MySQL** ning bu so‘rovga javobi quyidagi jadvaldan iborat:

```
+-----+-----+  
| version() | current_date |  
+-----+-----+  
1 row in set (0.02 sec)
```

Bu so‘rovni bajarish misolida **MySQL** bilan ishlash asosiy xususiyatlarini ko‘rish mumkin:

- Serverga yuborilayotgan komanda, odatda **SQL**-ifodadan iborat bo‘lib, ketidan nuqta vergul keladi. Bu qoidadan chekinishlar bor, masalan **QUIT** komandasidan so‘ng nuqtavergul qo‘yilmaydi;
- **MySQL** so‘rov natijasini jadval shaklida chiqaradi;

- So‘rov natijalaridan iborat jadvalni chiqargandan so‘ng, **mySQL** qaytarilgan satrlar soni va so‘rov bajarish vaqtini ko‘rsatadi. Bu qulay, chunki server unumdorligini va so‘rov bajarish effektivligini baxolashga imkon beradi;
- So‘rov natijalari va bajarilish vaqtini chiqargandan so‘ng, **mySQL** yangi **mySQL>** satrni chiqaradi, bu esa yangi komandalar bajarishga tayyorligini ko‘rsatadi.

**MySQL** komandalari registrga bog‘liq emas, shuning uchun quyidagi so‘rovlar bir xildir:

```
mySQL> select version(), current_date;
mySQL> SELECT VERSION(), CURRENT_DATE;
mySQL> Select Version(), Surrent_DATE;
```

**MySQL** bir satrga bir necha komandalarni joylashtirishga imkon beradi, lekin ular har biri nuqtavergul bilan tugashi kerak. Masalan:

```
mySQL> SELECT VERSION(); SELECT NOW();
```

Bunday so‘rovga quyidagi natijani olamiz:

```
+-----+
| version() |
+-----+
| 4. 0. 13-nt |
+-----+
1 row in set (0. 00 sec)
+-----+
| NOW() |
+-----+
| 2004-01-25 16:57:00 |
+-----+
1 row in set (0. 03 sec)
```

Lekin hamma komandalarni bir satrga joylash shart emas:

```
mySQL > SELECT USER(),
-> CURRENT_DATE;
```

Natija:

```
+-----+-----+
| user() | current_date |
+-----+-----+
| ODBC@localhost | 2004-01-25 |
+-----+-----+
1 row in set (0. 00 sec)
```

E’tibor berinki biz yangi satrga o‘tgandan so‘ng, komanda satri belgisi **mySQL>** dan **->** gao‘zgardi. Bu bilan **mySQL** tugatilgan so‘rov olinmaganligini va so‘rov oxirini kutayotganligini bildiradi. Bu belgi juda foydali, chunki ba’zi xatolar oldini olishga imkon beradi. Agar siz so‘rov oxirida nuqia vergul qo‘yishni unutgan bo‘lsangiz, **mySQL** bu to‘g‘rida **->** belgini chiqarib bildiradi:

```
mysql> select user()
->
```

**MySQL** dan soda kalkulyator sifatida foydalanish uchun maslan quyidagi so‘rovni kiritish kerak:

## MBBT MySQL da SQL tilining tatbiqi va PHP boshqariluvchi so‘rov

**MySQL** ma’lumotlar bazasida ishlatiladigan ma’lumotlar tiplari Butun sonlar. Ma’lumotlar tipini ko‘rsatish umumiy formasi:

```
prefiksINT [UNSIGNED]
```

Shart bo‘lmagan bayroq **UNSIGNED** iorasiz sonlar (o‘nga teng yoki katta) sonlar saqlash uchun maydon yaratishni bildiradi.

<b>TINYINT</b>	Diapazoni <b>-128</b> dan <b>127</b> gacha sonlarni saqlashi mumkin
<b>SMALLINT</b>	Diapazoni <b>-32 768</b> dan <b>32 767</b> gacha sonlarni saqlashi mumkin
<b>MEDIUMINT</b>	Diapazoni <b>-8 388 608</b> dan <b>8 388 607</b> gacha sonlarni saqlashi mumkin
<b>INT</b>	Diapazoni <b>-2 147 483 648</b> dan <b>2 147 483 647</b> gacha sonlarni saqlashi mumkin
<b>BIGINT</b>	Diapazoni <b>-9 223 372 036 854 775 808</b> dan <b>9 223 372 036 854 775 807</b> gacha sonlarni saqlashi mumkin

## Kasr sonlar

**MySQL** da butun sonlar bir necha turga ajratilganidek, kasr sonlar ham bir necha turga ajratiladi. Umumiy xolda ular quyidagicha yoziladi:

```
TipNomi[(length, decimals)] [UNSIGNED]
```

Bu yerda – kasr uzatilishda joylashadigan belgi joylari soni (maydon kengligi). **decimals** – o‘nli nuqtadan so‘ng hisobga olinuvchi raqamlar soni.

**UNSIGNED** – ishorasiz sonlarni beradi.

<b>FLOAT</b>	Aniqligi uncha katta bo‘lmagan suzuvchi nuqtali son.
<b>DOUBLE</b>	Ikkilik aniqlikka ega bo‘lgan suzuvchi nuqtali son.
<b>REAL</b>	<b>DOUBLE</b> uchun sinonim.
<b>DECIMAL</b>	Satrlar shaklida saqlanuvchi kasr son.
<b>NUMERIC</b>	<b>DECIMAL</b> uchun sinonim.

## Satrlar

Satrlar simvollar massivlaridan iborat. Odatda **SELECT** so‘rovi bo‘yicha matnli maydonlar bo‘yicha izlashda simvollar registri hisobga olinmaydi, Ya’ni **"Vasya"** va **"VASYA"** satrlari bir xil hisoblanadi. Agar ma’lumotlar bazasi matni joylashtirish va o‘qishda avtomatik qaytakodlashga sozlangan bo‘lsa, bu maydonlar

siz ko'rsatgan kodlashda saqlanadi. Oldiniga **length** dan oshmagan simvollar saqlovchi satrlar tiplari bilan tanishamiz., **length** prinadlejit diapazonu ot **1** dan to **255** gacha bo'lgan diapazonda yotadi.

**VARCHAR (length) [BINARY]**

Bu tipdagi maydonga biror qiymat kiritilganda undan oxirini ko'rsatuvchi simvollar avtomatik ravishda qirqib olinadi. Agar **BINARY** bayrog'i ko'rsatilgan bo'lsa, **SELECT** so'rovda satr registri hisobgaolgan xolda solishtiriladi.

<b>VARCHAR</b>	<b>255</b> dan ortiq bo'lmagan simvollarni saqlashi mumkin.
<b>TINYTEXT</b>	<b>255</b> dan ortiq bo'lmagan simvollarni saqlashi mumkin.
<b>TEXT</b>	<b>65 535</b> dan ortiq bo'lmagan simvollarni saqlashi mumkin.
<b>MEDIUMTEXT</b>	<b>16 777 215</b> dan ortiq bo'lmagan simvollarni saqlashi mumkin.
<b>LONGTEXT</b>	<b>4 294 967 295</b> dan ortiq bo'lmagan simvollarni saqlashi mumkin.

Ko'pincha **TEXT** tpi qo'llanadi, lekin ma'lumotlar **65536** simvoldan oshmasligiga ishonmasangiz, **LONGTEXT** tipidan foydalaning.

### Binar ma'lumotlar

Binar ma'lumotlar – **TEXT** formatidagi ma'lumotlarning o'zi, lekin ularda izlashda simvollar registri hisobgaolinadi.

<b>TINYBLOB</b>	<b>255</b> dan oshmagan simvollarni saqlashi mumkin.
<b>BLOB</b>	<b>65 535</b> dan oshmagan simvollarni saqlashi mumkin.
<b>MEDIUMBLOB</b>	<b>16 777 215</b> dan oshmagan simvollarni saqlashi mumkin.
<b>LOBLOB</b>	<b>4 294 967 295</b> dan oshmagan simvollarni saqlashi mumkin.

**BLOB**-ma'lumotlar avtomatik qayta kodlanmaydi, agar o'rnatilgan ulanish bilan ishlagndadraxol qayta kodlash imkoniyati o'rnatilgan bo'lsa.

### Sana va vaqt

**MySQL** sana va vaqtni har xil formatlarda saqlash uchun mo'ljallangan maydonlar bir necha tiplarini qo'llaydi.

<b>DATE</b>	<b>GGGG-MM-DD</b> formatdagi sana
<b>TIME</b>	<b>CHCH:MM:SS</b> formatdagi vaqt
<b>DATETIME</b>	<b>GGGG-MM-DD CHCH:MM:SS</b> formatdagi sana va vaqt
<b>TIMESTAMP</b>	timestamp formatdagi sana va vaqt. Lekin maydon qiymatini olishda u timestamp formatida emas, <b>GGGGMMDDCHCHMMSS</b> formatdaaks etadi, bu esa <b>PHP</b> dan undan foydalanish qiymatini ancha kamaytiradi.

Endi IUR ma'lumotlar bazasini MySQL bazasida kanday qilib yaratishni o'rganib chikamiz. Bizga ma'lumki ma'lumotlar bazasi o'zining nomiga ega bulishi bilan birga uni tashkil qiluvchilari jadvallar bo'ladi.

## MySQL bazasi bilan ishlovchi komandalar

MySQL da ma'lumotlar bazasi **CREATE DATABASE** komandasi yordamida yaratiladi. Komanda sintaksisi :

```
CREATE DATABASE database_name
```

- **database\_name** – Ma'lumotlar bazasiga beriladigan nomni **Tatu\_elib** deb belgilaylik. Demak,

```
CREATE DATABASE Tatu_elib
```

**PHP** da ma'lumotlar bazasini yaratish:

```
$SQL="CREATE DATABASE Tatu_elib"; mysql_query($SQL);
```

Agar ma'lumotlar bazasini o'chirmoqchi bo'lsak **DROP DATABASE** komandasidan foydalaniladi. Sintaksis: **DROP DATABASE database\_name**

**PHP**da ma'lumotlar bazasini o'chirish:

```
$SQL="DROP DATABASE db_test"; mysql_query($SQL);
```

**USE** komandasi yordamida jadvallar bilan ishlash uchun **MySQL** ga qaysi baza bilan ishlash haqida ma'lumot beradi

```
USE db_name;
```

IUR bazasi yaratildi. Endi uni tashkil qiluvchi jadvallarni yaratish kerak.

## MySQL ma'lumotlar bazasida jadvallar bilan ishlash

Jadval yaratish **CREATE TABLE** komandasi orqali amalga oshiriladi.

```
CREATE TABLE table_name(column_name1 type, column_name2 type, . . . )
```

- ◆ **table\_name** – yangi jadval nomi;
- ◆ **column\_name** – yaratilayotgan jadval ustunlari (maydonlari), nomlari.
- ◆ **type** – ustun tipi.

Ma'lumotlar bazasi shartlariga ko'ra ma'lumotlar takrorlanib kelmasligi, optimal jadvallar bog'lanishidan iborat bo'lishi kerak. Demak qaytalanib keluvchi ma'lumotlar aolhida jadvallarga ajratiladi. Ishchi ukuv rejasini shakllantirgan bazasini yaratishda daraxtsimon ichma-ich joylashuvchi bir nechta jadvallardan foydalanamiz. Bu ma'lumotlar bazasini tablitsalarini yaratish jarayonida ularga izox

beraylik.

Birinchi jadvalimiz ishchi ukuv rejadagi bloklarning nomlarini uzid saklovchi jadvaldan iborat. Bu jadvalni bloc nomi bilan atab, uni yaratilishi va ichki parametrlari kuyidagicha buladi.

```
CREATE TABLE `bloc` (  
  `id_bloc` int(11) NOT NULL default '0' COMMENT 'Kod Blok fanlar',  
  `uz_bloc` varchar(40) NOT NULL default '' COMMENT 'Blok nomi',  
  `ru_bloc` varchar(40) NOT NULL default '' COMMENT 'Imya bloka',  
  `en_bloc` varchar(40) NOT NULL default '' COMMENT 'Name bloks',  
  `ss_bloc` varchar(20) NOT NULL default '' COMMENT 'Bloklarning kiskartirib  
yozilishi',  
  PRIMARY KEY (`id_bloc`)  
) ENGINE=MyISAM DEFAULT CHARSET=cp1251 MIN_ROWS=2 MAX_ROWS=10;
```

Ma'lumotlar turlariga mos ustunlar bilan bajarish mumkini bo'lgan (yoki taqiqlangan) operatsiyalarni ko'rsatuvchi modifikatorlarni ulash mumkin. **not null** – Maydon noma'lum qiymatga ega bo'la olmasligini, ya'ni jadvalga yangi yozuv qo'shishda maydon albatta initsializatsiya qilinishi kerakligini (agar ko'zda tutilgan qiymat berilmagan bo'lsa) ko'rsatadi. Masalan, bosh menyuda keltiriladigan axborotlar (maydon `name_lec` ) maydonlari noma'lum qiymatga ega bo'laolmasligini ko'rsatish kerak:

- **primary key**–Maydon birlamchi kalitligini, Ya'ni ilova qilish mumkin bo'lgan yozuv identifikatori yekanligini aks etadi.
- **auto\_increment** – Maydonga yangi yozuv qo'shishda maydon unikal qiymat qabul qiladi vajadvalda hech qachon bir xil nomerli maydonlar mavjud bo'lmaydi.
- **default** – maydon uchun ko'zda tutilgan qiymatni aniqlaydi. Agar joylanayotgan yozuvda bu maydon uchun qiymat ko'rsatilmagan bo'lsa, shu qiymat kiritiladi.

Ishchi ukuv rejada kaysidir mutaxassislikga tuzililadi. Ikkinchi yaratmoqchi bo'lgan tablitsamizni **spes** nomi bilan ataymiz va u ishchi ukuv rejaga boglik buladi

```

CREATE TABLE `spes` (
  `id_spes` int(11) NOT NULL auto_increment COMMENT 'Kod Spes',
  `id_fakultet` int(3) NOT NULL default '0' COMMENT 'Kod FAKULTET',
  `uz_spes` varchar(100) NOT NULL default '' COMMENT 'Mutaxassislik nomi',
  `ru_spes` varchar(100) default NULL,
  `en_spes` varchar(100) default NULL,
  `ss_spes` varchar(20) NOT NULL default '' COMMENT 'Mutaxassilikning
kiskartma yozilishi',
  `mcode` varchar(8) default NULL,
  `mag_bak` tinyint(1) NOT NULL default '0',
  `id_otm` int(3) default NULL,
  PRIMARY KEY (`id_spes`)
) ENGINE=MyISAM DEFAULT CHARSET=cp1251 PACK_KEYS=1 ROW_FORMAT=DYNAMIC;

```

ishchi ukuv rejadagi fanlar biror bir kafedra tomonidan utiladi. Uchunchi tablitsa OTMdagi kafedralar xakida ma'lumotlarni uzida saklaydi va u tablitsani **kafedra** deb ataymiz:

```

CREATE TABLE `kafedra` (
  `id_kafedra` int(11) NOT NULL auto_increment,
  `id_fakultet` int(2) NOT NULL default '1' COMMENT 'Kod Fakultet',
  `uz_kafedra` char(100) NOT NULL default '' COMMENT 'Kafedra UZB',
  `ru_kafedra` char(100) NOT NULL default '' COMMENT 'Kafedra RUS',
  `en_kafedra` char(100) NOT NULL default '' COMMENT 'Kafedra ENG',
  `ss_kafedra` char(20) NOT NULL default '' COMMENT 'Qisqartma nomi',
  PRIMARY KEY (`id_kafedra`)
) ENGINE=MyISAM DEFAULT CHARSET=cp1251;

```

Endi eng asosiy jadval, ishchi ukuv reja parametrlarini uzida aks ettiruvchi jadvalni **IUR** deb nomladik. Bu tablitsa yukorida yaratilgan **bloc**, **sspes**, **kafedra** tablitsalariga boglik va qaram bo'lgan tablitsa bo'lib hisoblanib, unda asosiy barcha axborotlar joylashadi. Uni yaratish quyidagicha:

```

CREATE TABLE `iur` (
  `id_iur` int(11) NOT NULL auto_increment,
  `id_kafedra` int(3) default '0' COMMENT 'Kod Kafedra',
  `id_spes` int(4) NOT NULL default '0' COMMENT 'Kod Mutaxassislik',
  `id_bloc` int(2) NOT NULL default '3' COMMENT 'Kod ukuv blok',
  `id_sem` int(1) NOT NULL default '1' COMMENT 'Kod Semestr',
  `id_fan` int(11) NOT NULL default '0' COMMENT 'Fanning kodi',

```

```

`dt1` int(3) default '0' COMMENT 'Ma'ruza soati',
`dt2` int(3) default '0' COMMENT 'Amaliy ish soati',
`dt3` int(3) default '0' COMMENT 'Laboratori ishi soati',
`dt4` int(3) default '0' COMMENT 'Seminar',
`dt5` int(3) default '0' COMMENT 'Kurs ishi',
`dt6` int(3) default '0' COMMENT 'Mustakil ish',
`td1` int(1) NOT NULL COMMENT 'Ma'ruzaning xaftasiga utilish soati',
`td2` int(1) NOT NULL COMMENT 'Amaliy yoki seinarning xaftasiga utilish',
`td3` int(1) NOT NULL COMMENT 'Laboratoriyaning xaftasiga utilish soati',
`yil` int(4) default '2010' COMMENT 'Uchebniy god',
`fan_name` varchar(200) default NULL,
`mcode` varchar(8) default NULL,
PRIMARY KEY (`id_iur`)
) ENGINE=MyISAM DEFAULT CHARSET=cp1251 MIN_ROWS=2 MAX_ROWS=10;

```

Odatda MySQL bazasi bilan ishlovchi dasturlar bilan uning baza va tablitsalari yaratilib, redaktorlanadi. Biz ishchi ukuv rejani va uni kafedralarga taksimlanishi bazasini yaratishda **SQL Manager 2007 for MySQL** dasturidan foydalandik. Yuqoridagi tablitsalarning bog‘lanish kodglariga mos tablitsaarning bog‘lanish sxemasi:

SQL Manager 2010 Lite for MySQL - el\_otm на localhost [el\_otm] - [Конструктор запросов...]

База данных Представление Инструменты Службы Плагины Параметры Окна Справка

Создать Искать:

Базы данных localhost el\_otm на localhost Таблицы (36)

- auditoria
- audtip
- bloc
- davomat
- ddata
- dt
- elinks
- fakultet
- grup
- ilmiy\_daraja
- ilmiy\_unvon
- iur
- jarayon
- kafedra
- lavozim
- millat

Конструктор Редактировать

Query 1

**kafedra**

- id\_kafedra
- id\_fakultet
- uz\_kafedra
- ru\_kafedra
- en\_kafedra
- ss\_kafedra

**spes**

- id\_spes
- id\_fakultet
- uz\_spes
- ru\_spes
- en\_spes
- ss\_spes
- mcode
- mag\_bak
- id\_otm

**iur**

- id\_iur
- id\_kafedra
- id\_spes
- id\_bloc
- id\_sem
- id\_fan
- dt1
- dt2
- dt3
- dt4
- dt5
- dt6
- td1
- td2
- td3
- yil
- fan\_name
- mcode

**bloc**

- id\_bloc
- uz\_bloc
- ru\_bloc
- en\_bloc
- ss\_bloc

**semestr**

- id\_semestr
- semestr
- hafta

Criteria Selection Grouping criteria Sorting

All of the following are met

1: 1 Вставить Подсветка Unicode (USC-2)


SQL Manager Direct Конструктор запросов - [el\_otm...]

### §3. KAFEDRA FAOLIYATINI BOSHQARUV MODELINI VA ALGORITMLARI


Qaralgan adabiyotlarda avtomatlashtirilgan oliy ta'lim muassasalari tizimini ishlash arxitekturasidan ma'lumki Unga asosan OTM faoliyati va ta'limni avtomatlashtirilgan turda boshqarish masalasini yechishda kontseptual model qurilishi va ushbu modelda ob'ektlardagi ma'lumotlar bilan ishlovchi algoritmlar, ularning foydalanuvchilarga xizmatlarni taqdim etishda interaktivlikni shakllantirishni ko'rib chiqamiz.

#### 3.1. Kontseptual model

Ushbu paragrafda ta'lim tizimida ABTni yaratish va boshqarishning kontseptual modeli bilan tanishib, bu modelni tashkil etuvchi turli vazifalarga yo'naltirilgan algoritmlarning ishlash jarayonlari ko'rib chiqdik. Endi ABTda foydalanuvchilar ehtiyojlari asosida xizmatlarni shakllantirish muammosini ko'ramiz. OTM da mavjud axborot resurslardan foydalangan holda o'quv jarayonini avtomatlashgan holda tashkil etish masalalarini qaraylik. Odatda o'quv jarayonini tashkil etish – dars jadvali, fanlar, o'qituvchilar, auditoriyalar va talabalar kabi ob'ektlariga bog'liq. Ushbu ob'ektlarni o'zaro mosligi, bog'liqliklari haqidagi ma'lumotlaridan samarali foydalanish modelni aniq qurishda muhim hisoblanadi.



2.2-rasm. Ma'lumotlar bazasining strukturaviy tuzilmasi.



2.3-расм. ИЎРнинг тақсимоти алгоритми

Ushbu ob'ektlarning MB elementlari quyidagilardan iborat bo'lsin:

1. Professor o'qituvchilar ro'yxati (kafedralar asosida);
2. Talabalar ro'yxati asosida akademik guruhlar (mutaxassislik, kurs, ta'lim tili, guruhlar);
3. Fanlar va hajmi, ya'ni IO'R (mutaxassislik, kafedra, semestr);
4. Tayyor O'UMLar ro'yxati (ma'ruza matnlari, amaliy va laboratoriya ishlariga uslubiy ko'rsatmalar, topshiriqlar, testlar va h.k.);
5. Auditoriyalar jamg'armasi (auditoriya turlariga ajratilgan holda).

MBdagi strukturaviy tuzilma va uni tashkil etuvchi maydonlar xossalari 2.2-rasmda ifodalangan.

Berilgan *IO'R* va *guruhlar* asosida *guruhlararo taqsimot yuklamasi* maxsus algoritmi asosida hisoblanadi (2.3-rasm). Natija quyidagicha jadvali ma'lumotlar hosil bo'ladi.


Fan	Turi	Semestr	Guruh	Guruhcha	O'qituvchi	Auditoriya
Ma'lumotlar bazasi	ma'ruza	3	709 (AT)	1		
Informatika	laboratoriya	2	708 (KT)	1		
Matematika	amaliy	1	709 (AT)	1		
.....	.....	.....	.....	.....	.....	.....

Bu jadvaldagi *fan*, *fan turi*, *semestr*, *guruh*, *guruhchalar* maydoni avtomatik ravishda to'ldirilib boriladi. *O'qituvchi* va *auditoriya turi* maydonlari kafedra tomonidan yoki dekanat tomonidan kiritiladi. Fan va uning mashg'ulot turlariga mos o'qituvchini ko'rsatilishi orqali kafedra o'qituvchilari shaxsiy yuklamasi hosil qilinadi.

Fan mashg'uloti turiini o'tish uchun auditoriya turi ko'rsatilishi dars jadvalini shakllantirayotgan vaqtda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Hosil qilingan yuklama jadvali yordamida o'qituvchilar o'quv yuklamalarini, semestrlararo soat hajmlari kafedra va mutaxassisliklar kesimida taqsimot yuklamalarini hisoblab chiqish, o'quv jarayonini tashkil qiluvchi dars jadvalini shakllantirish va uni davriylashtirishda asosiy o'rinni egallaydi.

Quyidagi bayon qilingan avtomatlashgan tizimda o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish masalani yechishning (DT ishlash) kontseptual modeli 2.4 rasmdagi tuzilmada o'z aksini topgan.



□ o'zgarimas, mavjud ma'lumotlar;

○ ishlab chiqariluvchi ma'lumotlar;

⊗ ma'lumotlarni ishlab chiqaruvchi dasturiy ta'minot algoritmlar.

2.4-rasm. O'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish modeli

Endi ABT ta'lim jarayonini tashkil etuvchi ushbu modelni tashkil etuvchilari, ya'ni o'zgarimas va ishlab chiqariluvchi ma'lumotlar hamda ularni boshqaruvchi algoritmlar xususida kengroq to'xtalamiz

### 3.2. Modelni tashkil etuvchi algoritmlar tasnifi

Yuqorida keltirilgan o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish tuzilmasidagi ma'lumotlarni qayta ishlab chiqish algoritmlaridan oldin tizimga zarur bo'lgan dastlabki o'zgarmas ma'lumotlar bilan tanishaylik.

#### O'zgarmaslar.

Mutaxassisliklarga o'tiladigan fanlar to'plami mutaxassislik IO'Rsi deyiladi. IO'R OO'MTV tomonidan taqdim etilgan namunaviy o'quv reja asosida OTM tomonidan ishlab chiqiladi. IO'Rdagi fanlarni kafedralararo taqsimlash OTM o'quv bo'limi tomonidan amalga oshirilib, u mavsumiy ishchi o'quv reja deb yuritiladi. IO'R ni quyidagi ko'rinishda ifodalaymiz:

$$IUR = \sum_{i=1}^{Fcount} F_i, \text{ bu yerda } Fcount\text{-IO'R ni tashkil etuvchi fanlar soni.}$$

Har bir fan  $F_i$  o'zining ichki parametrlariga ega, ya'ni

$$F_i = \left\{ \begin{array}{l} \text{mutaxassislik maxsus kodi,} \\ \text{semestr,} \\ \text{tegishli bloki,} \\ \text{mashg'ulot turi soatlarlari hajmi,} \\ \text{haftasiga o'tiladigan darslar soati,} \\ \text{kafedra maxsus kodi} \end{array} \right\} = \{mcode, s, bloc^k, dt^j, td^l, kaf\}$$

bu yerda  $bloc^k$  mos  $F_i$  fan tegishli blok raqami, ya'ni

$$bloc^k = \left\{ \begin{array}{l} \text{Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar,} \\ \text{Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar,} \\ \text{Umumkasbiy fanlar,} \\ \text{Ixtisoslik fanlar,} \\ \text{Qo'shimcha fanlar,} \\ \text{Tanlov fanlar} \end{array} \right\}, \quad k = \overline{1..6}.$$

$dt^j$  mos  $F_i$  fan mashg'ulot turi darslari hajmi, ya'ni

$$dt^j = \left\{ \begin{array}{l} dt^1 = \text{ma'ruza matni,} \\ dt^2 = \text{amaliy mashg'ulot,} \\ dt^3 = \text{tajriba ishi mashg'ulot,} \\ dt^4 = \text{seminar,} \\ dt^5 = \text{kurs ishi,} \\ dt^6 = \text{mustaqil ta'lim} \end{array} \right\}, \quad j = \overline{1..6}.$$

$td^l$  haftasiga o'tiladigan mos  $F_i$  fan mashg'ulot turi darslari soati, ya'ni

$$td^l = \left\{ \begin{array}{l} td^1 = \text{ma'ruza darsi,} \\ td^2 = \text{amaliy mashg'ulot,} \\ td^3 = \text{tajriba ishi yoki seminar darsi} \end{array} \right\}, \quad l = \overline{1..3}.$$

2) Auditoriya OTM binosida joylashgan bo'lib, akademik guruh talabalarga fan mashg'ulot turi darslarini o'qitishga mo'ljallangan va sig'im jihatdan chegaralangan maxsus xona. Auditoriyalar jamg'armasi bir vaqtning o'zida bir nechta akademik guruhlariga darslarni o'tish imkonini beradi va uni quyidagicha ifodalaymiz:

$$AF_i = \left\{ \begin{array}{l} \text{tegishli fakultet kodi,} \\ \text{bino,} \\ \text{qavat,} \\ \text{xona raqami,} \\ \text{auditoriya turi,} \\ \text{sig'imi} \end{array} \right\} = \{fak, bino, etaj, num, tip^l, son\}.$$

bu yerda  $l$ -auditoriya turlari soni, ya'ni ma'ruza zali, kompyuter sinfi, maxsus laboratoriya xonasi va boshqalar.  $t = \overline{1..AFcount}$ ,  $AFcount$ -auditoriyalar jamg'armasini tashkil etuvchi o'quv auditoriyalar soni. OTM bir vaqtning o'zida talabalarga talim bera olish sig'imi  $\sum_{t=1}^{AFcount} AF_t(son)$  ga teng.

3) Akademik guruhlarini quyidagicha belgilaymiz:

$$AK_g = \left\{ \begin{array}{l} \text{mutaxassislik kodi,} \\ \text{kursi,} \\ \text{ta'lim tili,} \\ \text{guruh raqami,} \\ \text{talabalar soni,} \\ \text{guruhchalarga ajratilish soni} \end{array} \right\} = \{mcode, kurs, til, name, son, ingrup\}.$$

bu yerda  $g = \overline{1..AKcount}$ ,  $AKcount$ -mutaxassislikka tegishli barcha kurslar bo'yicha akademik guruhlar soni. Mutaxassislik talabari kontingenti  $\sum_{g=1}^{AKcount} AK_g(son)$  ga teng.

4) Talabalar:

$$ST_s = \left\{ \begin{array}{l} \text{tegishli akademik guruh kodi,} \\ \text{FISh,} \\ \text{ta'lim shakli}=\{grant, kontrakt\} \end{array} \right\} = \{AK_g, fio, kb = \langle 0,1 \rangle\}.$$

5) Professor-o'qituvchilar:

$$PU_d = \left\{ \begin{array}{l} \text{kafedra maxsus kodi,} \\ \text{FISh,} \\ \text{lavozimi,} \\ \text{ish stavkasi,} \\ \text{soat hajmi,} \\ \text{shartnoma shakli}=\{grant, kontrakt\} \end{array} \right\} = \{kaf, fio, lav, st, sx, kb = \langle 0,1 \rangle\}.$$

6) Fanlarning O'UMsi:

$$KOMPL_u = \left\{ \begin{array}{l} \text{мажмуа тури,} \\ \text{фан коди,} \\ \text{маълумот} \end{array} \right\} = \{MT^e, F_i, file\}.$$

### ***Boshqarish tuzilmasidagi algoritmlar tasnifi***

(A) **algoritm** IO'R fan mashg'uloti darslarini mutaxassislik akademik guruhlararo taqsimlaydi (2.3 rasmga qarang).

1.  $\forall v = \overline{1..MAXmcode}$ . Mutaxassisliklarni massivga yozish mcode, ularning soni  $MAXmcode$

2. Mutaxassislikka tegishli akademik guruhlar va fanlarni o'qish,

$$AK_g = AK_g \Big|_{AK_g(mcode)=v}, \quad F_i = F_i \Big|_{F_i(mcode)=v}$$

3.  $\forall i = \overline{1..Fcount}$

4.  $\forall j = \overline{1..6}$

5.  $F_i(dt^j) > 0$

5.1.  $dt^j = 1$  potoklarni hosil qilish (ma'ruza)

5.1.1.  $POTOK = \emptyset$

5.1.2.  $\forall g = \overline{1..AKcount}$

5.1.2.1  $F_i(s) = AK_g(kurs)*2-1$  (qishki) yoki  $F_i(s) = AK_g(kurs)*2$  (yozgi)

5.1.2.2  $POTOK = POTOK \cup \{AK_g\}$

5.1.3.  $POTOK \notin GF \Rightarrow GF = GF \cup \{POTOK \cup 1 \cup ig\}$

5.2.  $dt^j = 2$  akademik guruhlarga taqsimlash (amaliy mashg'ulotlar)

5.2.1.  $\forall g = \overline{1..AKcount}$

5.2.2.1.  $F_i(s) = AK_g(kurs)*2-1$  (qishki) yoki  $F_i(s) = AK_g(kurs)*2$  (yozgi)

5.2.2.2.  $(F_i \cup AK_g) \notin GF \Rightarrow GF = GF \cup \{F_i \cup AK_g \cup 1 \cup 0\}$

5.3.  $dt^j = \langle 3,4 \rangle$  akademik guruhlarni ajratish (laboratoriya ishi yoki seminar mashg'ulotlar)

5.3.1.  $\forall g = \overline{1..AKcount}$

5.3.1.1.  $F_i(s) = AK_g(kurs)*2-1$  (qishki) yoki  $F_i(s) = AK_g(kurs)*2$  (yozgi)

5.3.1.1.1.  $e = \overline{1..AK_g(ingrup)}$

$$5.3.1.1.2. (F_i \cup AK_g) \notin GF \Rightarrow GF = GF \cup \{F_i \cup AK_g \cup e \cup 0\}$$

Natijada ushbu ma'lumotlar ishlab chiqariladi:

$$GF_y = \left\{ \begin{array}{l} IO'Rdagi\ fan\ kodi, \\ mashg'ulot\ turi, \\ akademik\ guruh\ kodi, \\ guruhchalar\ raqami, \\ potok\ (ha\ yoki\ yo'q), \\ dars\ o'tadigan\ o'qituvchi\ kodi, \\ haftalik\ darslar\ soni \end{array} \right\} = \{F_i, dt^j, AK_g, ingrup, potok, PU_d, FH_i\}.$$

bu yerda  $y = \overline{1..GFcount}$ ,  $GFcount$  - IO'Rdagi fan mashg'ulot turlarini o'tish uchun talab qilinadigan aniq auditoriyaviy darslari soni. Bundan kafedralar, mutaxassisliklarni semestrlararo soatlar hajmini aniqlash mumkin. Ya'ni

$$\sum_{y=1}^{GFcount} GF_y \left( F_i^s(dt) \Big|_{kaf} \right) - \text{kafedra auditoriyaviy darslari umumiy hajmi.}$$

(V) **algoritm** yordamida kafedra professor-o'qituvchilari yuklamasi ishlab chiqiladi va uni kafedra mudiri yoki mutasaddi shaxs amalga oshiradi. Asosan algoritm ikkita kiruvchi parametrlar yordamida ya'ni, o'qituvchilar haqidagi ma'lumot hamda guruhlararo IO'R taqsimoti ma'lumotlari yordamida yangi ma'lumot ishlab chiqiladi.

1.  $\forall k = \overline{1..KafCount}$ ,  $KafCount$  mavjud kafedralar soni,  $kaf_k$  massivini yozish

2. Tanlangan kafedra o'qituvchilarini massivga yozish  $PU_d = PU_d \Big|_{kaf=kaf_k}$

3. Kafedraga tegishli IO'R taqsimotini tanlash  $GF_y = GF_y \Big|_{F_i(kaf)=kaf_k}$

4.  $\forall y = \overline{1..GFcount}$

4.1 Agar  $GF_y(PU) = 0$  bo'lsa, fan mashg'ulotiga o'qituvchi tanlanmagan

4.1.1  $\forall d = \overline{1..PUcount}$  ixtiyoriy o'qituvchi tanlash,

4.1.2  $SPU_d = \sum_{y=1}^{GFcount} GF_y(dt) \Big|_{PU_d}$  tanlangan o'qituvchi real hajmini aniqlash

4.1.3 Agar  $SPU_d + GF_y(dt) \leq PU_d(sx)$  bo'lsa

4.1.3.1  $GF_y(PU) = PU_d$

